IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
Volume 3 issue 2 - 2023

OYBEK HAYOTI VA IJODINI BADIIY MEROSI YORDAMIDA O'RGANISH

Boboniyozova Manzura Karim qizi
Termiz davlat pedagogika instituti, Filalogiya fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich 207-guruh talabasi

Annotatsiya
Oybek o'zining ibratli hayoti va intilishlari, sermaxsul va samarali ijodiy merosi bilan adabiyotimiz nufuzini jahoniy miqyoslarga ko'tarishga barakali hissa qo'shdi. Ulug' akademik shoir, nosir, adabiyotshunos va tarjimon Oybek ijodiy merosi madaniyatimiz va adabiyotimizning tarkibiy qismi bo'lib, uning ijodini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo bugungi kunda ulug' shoir ijodiy merosini bilish va tadqiq etish g'oyatda muhimdir.

Kalit so'zlar
Badiiy adabiyot, asarlar, "Navoiy" romani, tanqidiy-badiiy asarlar.

Istiqlol yillarida ma'naviy hayotimizni isloh qilish va yangilashga e'tibor yanada kuchaydi. Endilikda ma'naviy, adabiy, diniy qadriyatlarimizni tiklash va buni har tomonlama yetuk inson kamolotiga yo'naltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu esa bizga adabiy merosimiz namoyandalari ijodini yangicha qarashlar asosida o'rganish va tahlil etish imkonini beradi. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz", deb ta'kidladilar. Prezidentimizning bu fikrlari bevosita adabiy ta'limga ham taalluqlidir. Shoir va yozuvchilarimiz asarlarini zamonaviy ta'lim usullari asosida o'rgatish orqali yosh avlodni zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson sifatida kamol topishlariga erishishimiz lozim.

Sho'ro davri o'zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ulug' adib, shoir, olim, jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yili Toshkent shahrida bo'zchi oilasida dunyoga keldi. Oldin o'rta maktabda, 1922-1925 yillarda esa Toshkent pedtexnikumida ta'lim oldi. So'ngra O'rta Osiyo Davlat dorilfununida ijtimoiy fanlar fakultetida o'qishni davom ettirdi. Leningraddagi Plexanov nomidagi Xalq xo'jaligi institutida tahsil ko'rdi. 1930-yili O'rta Osiyo Davlat dorilfununini tugatib, Oliy maktablarda siyosiy iqtisoddan dars beradi. Oybek adabiyotga 1926-yili chop etilgan «Tuyg'ular» she'riy to'plami bilan kirib keladi. Shoirning «Dilbar davr qizi» (1931), «O'ch» (1932), «Baxtigul va Sogindiq» (1933), «Temirchi Jo'ra» (1933) poemalari o'z davrining she'riy solnomalaridandir. Uning yigirmadan ortiq dostonlari bo'lib, tarixiy, zamonaviy va xorijiy mavzularda yaratilgan. O'zbek xalqining 1916 yilgi milliy ozodlik qo'zg'oloni yozuvchining «Qutlug' qon» (1940) romanida zo'r mahorat bilan realistik ifodalangan. Adibning ikkinchi yirik tarixiy asari «Navoiy» (1944) romanidir. Oybek bu romanda o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy obrazini yaratdi. Uning «Oltin vodiydan shabadalar» (1949) asarida xalqimizning urushdan so'nggi davr yaratuvchilik mehnati, «Quyosh qoraymas» (1958) romanida Ulug Vatan urushida erishilgan g'alaba aks ettirilgan. Adibning «Ulug' yo'l» (1967) asari esa «Qutlug' qon» romanining mantiqiy davomi bo'lib, unda yozuvchi milliy ongning shakllanishini mahorat bilan ko'rsata olgan. Oybek 1949-yilda Pokistonga sayohat qildi. Adib Pokiston hayotini, fikr va tuyg'ularini, kurash va intilishlarini «Pokiston xotiralari» ocherklarida, qator she'rlarida, «Zafar va Zahro», «Haqgo'ylar» dostonlarida, nihoyat «Nur qidirib» povestida tasvirladi. Adibning avtobiografik povesti «Bolalik» 1963 yilda yaratildi. Qissaning bosh qahramoni yosh Muso ya'ni Oybekning o'zidir. Oybek iste'dodli shoir, yirik nosir bo'libgina qolmay, mashhur olim, davlat va jamoat arbobi, publitsist tanqidchi va tarjimon hamdir. O'zbek kitobxoni Pushkinning «Yevgeniy Oiegin», Lermontovning «Maskarad» asarini, antik Rim adabiyoti namunalarini, arman eposi

«Sosunli Dovud»ni Oybek tarjimasida o'qishga muyassar bo'lgan. Oybek 1943-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zoligiga saylandi va 1950-yilgacha Akademiyada ijtimoiy fanlar bo'limining raisi lavozimida ishladi. U yuqori malakali filologlar tayyorlashga katta hissa qo'shgan ustozdir. Ulkan adib «Navoiy» romani uchun Ittifoq Davlat mukofoti laureati bo'ldi, bir necha orden va medallar bilan taqdirlandi. U O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori ham bo'lgan. Yozuvchining asarlari o'zbek adabiyotining jahon aro shuhratini yanada oshirdi. Ustoz mahorati yosh yozuvchilar uchun ijod dorilfununiga aylandi. Oybekning o'lmas asarlari ma'naviy xazinamizdan mangu o'rin oldi va umumxalq mulki bo'lib qoldi. Uning eng yaxshi asarlari jahon adabiyoti xazinasiga ham kirgan. Oybek 1968-yil 1-iyulda 63 yoshida vafot etdi. Vafotidan so'ng uning 20 jildlik to'la asarlari majmuasi nashr etildi.

Oktyabr inqilobidan keyingi yillar o'zbek madaniyati, adabiyoti va sanati uchun o'ziga xos uyg'onish davri bo'ldi. Bu yillarda xuddi qadim Renessans vaqtida bo'lgani kabi qomusiy bilim, universal istedod, ko'p qirrali ijod soqiblari yetishib chiqdi. Shulardan biri — Oybek. Adibning o'n to'qqiz tomlik «Mukammal asarlar to'plamiini ko'zdan kechirganda uning iqtidoriga, iste'dod ko'lamiga, ishchanligiga qoyil qolasan kishi. U ajoyib lirik shoir, qator epik poemalar, dramatik dostonlar muallifi; ayni paytda badiiy proza masteri, o'tkir publitsist, hikoya, qissa, xususan, barkamol romanlar avtori; shu bilan barobar, bolalar adabiyotining yetuk namoyandasi, ulkan adabiyotshunos olim, tanqidchi, tarixchi, mohir tarjimon. Shunisi ham borki, Oybek amaliy faoliyatda, xususan, «Navoiy» asarida Qodiriy romanlari munosabati bilan aytgan ba'zi tanqidiy qarashlaridan xiyol chekinadi. Masalan, adib «O'tgan kunlar»da Otabek, Yusufbek hoji singari savdogar tabaqa namoyandalari o'zlarida sotsial kuchning xususiyatlarini atroflicha to'la yoritib bermaganini aytadi, ular asarda savdogarlar tabaqasi mohiyatini tashuvchi shaxslar emas, balki o'z davri uchun nisbatan progressiv qarashlarni aks ettiruvchi kishilar ekanligini yetarli hisobga olmaydi. Yozuvchi «Qutlug' qon» romanida ayni shu o'zi ilgari surgan konsepsiyaga to'la rioya qiladi, undagi har bir qahramon, personaj muayyan tabaqa, sotsial kuchning mohiyatini tashuvchi xususiyatlarga ega, ularning har biri bevosita sotsial tip, yo ezuvchi — ekspluatator yoki eziluvchi — meqnatkash ishchi-deqqon sinfi vakili. «Navoiy» romanida esa o'zgacharoq manzaraga duch kelamiz. Hayotiy haqiqat, mavzu- material, asarning g'oyaviy-badiiy problematikasi, badiiy niyat xarakteridan kelib chiqqan holda adib qahramonlar tanlash va ularning talqinnda endi muayyan darajada Qodiriy tajribasiga tayanadi, qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, mavqei bilan ularning iroda yo'nalishi, asarda tutgan o'rni, kurash-intilishlari ifodasida, V. Belinskiy aytgan anoxronizm, badiiy niyatga ko'ra tarixiy hodisalarni «o'zgartirib ko'rsatish» prinsipidan ham foydalanadi. Chunonchi, Navoiy ijtimoiy mavqei jihatidan katta mulk egasi, saroyda ulkan mansablarni egallagan, bosh vazir, bek lavozimlariga ko'tarilgan odam. Oybek Navoiy haqidagi tadqiqotlarida bu holatni alohida ta'kidlab o'tadi, ammo yozuvchi romanda Navoiy hayoti bilan bog'liq bu jihatlarni atayin chetlab o'tadi. Navoiy obrazida katta mulkdorga, mansabdorga xos sotsial xususiyatlarni ochishga aslo urinmaydi, uni asosan xalqparvar, erkparvar, adolatparvar gumanist alloma sifatida talqin etadi; saroydagi yana ayrim ilg'or tarixiy shaxslar ham shu tarzda berilgan. Shu jihatdan qaraganda shaxsan menga «O'tgan kunlar»dagi Yusufbek hoji Navoiy obrazining poetik modeli bo'lib tuyuladi. Yusufbek hojini qiynagan ko'p hayotiy jumboqlar, o'zaro urushlarga, behuda qon to'kishlarga qarshi turish, mansabdorlarni adolatga, insofga undash, xalqning birligi, osoyishi, farovonligi uchun kurash, aql-idrok tantanasiga ishonch — bular keyinchalik Navoiy obrazida hayotiy faktlar asosida yangi kuch bilan keng masshtabda namoyon bo'ldi.

Yozuvchi qo'lyozma ustida jiddiy ishlab, 1939-yilda asarni yozuvchilar uyushmasida muhokama qildirdi. Muhokama chog'ida ayrim kishilar adibni asarga inqilobchi kuchlarni, rus proletariati

vakillarini kiritmaganlikda aybladilar. So‘ng yozuvchi romanda shu jihatni kuchaytirishga, unga revolyutsioner Petrov timsolini kiritishga majbur bo‘ldi. "Qutlug‘ qon" tarixiy romanida o‘zbek xalqining yaqin o‘tmishda rus bosqinchilari va mahalliy amaldorlar tomonidan ezilganligi, xalqning o‘z ahvolini anglab, ezuvchilarga qarshi qo‘zg‘olishi badiiy ifodasini topgan. Roman asosida 1916- yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan xalq qo‘zg‘oloni yotadi. O‘sha vaqtda o‘n bir yoshli o‘smir bo‘lgan Oybek bu voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Bo‘lajak yozuvchi u paytda ko‘rganlarining asl mohiyatini anglamagan bo‘lsa-da, milliy ozodlik yo‘lidagi qo‘zg‘olon o‘smirning ta'sirchan ko‘nglidan chuqur o‘rin olgandi.

Agar Oybek o‘zaro urushlar olovida qovurilgan temuriylar davrining mohiyatini aks ettirish, Husayn Boyqaro saltanatidan yorug‘lik nurlarini topib zamondoshimiz kishisining nazari bilan qarash, uzoq o‘tmish manzaralarini jonli xarakterlar orqali ko‘rsatib berishni ko‘zlaganligini inobatga olsak, yuqoridagi tasvirlardagi miltillagan shu’lalar ulkan ramziy-majoziy mohiyat ham kasb etadi. Qolaversa, temuriyzodalar taqdiri bir umr Oybek fikr-o‘ylarini band etgan, ijodiga ilhom bergan olis moziyning lippillagan shu’lasidir. Zero, adibning ijodiy reja va niyatlarida Sohibqiron Amir Temur haqida tarixiy doston yozish bo‘lganligi, ulkan yozuvchiinng uni to‘kis amalga oshirishga shafqatsiz o‘lim imkon bermaganligi ayon. Sirtdan qaraganda “Navoiy” romanida ulug‘ gumanist shoirning tarjimai holi batafsil yoritilganday tuyuladi. Chindan ham romanda 1469-yilning ko‘klamidan 1501-yilning yanvarigacha bo‘lgan o‘ttiz ikki yillik voqealar qalamga olingan. Navoiy qizg‘in madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda tasvirlanadi. Donishmand va tadbirkor Navoiy marhamatli va talabchan ustoz, madaniyat-ma’rifat va obodonchilik ishlarining rahnamosi, insof diyonat, adolat himoyachisi, mamlakat va xalq osoyishtaligining posboni sifatida namoyon bo‘ladi. Mutafakkir shoir va olim sifatida o‘z ichki imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Davlat va idora usulida mustahkam tartib o‘rnatish va ayrim isloxatlar o‘tkazish yo‘lida jon kuydiradi. Nizo va adovatlarni bartaraf etishga urinadi. Qalbini ishonch va umid tark etmagan Navoiy tobora tanazzul botqog‘iga botib borayotgan Husayn Boyqaro saltanatida kechayotgan voqealar mantig‘ini teran anglaydi. Jaholat iskanjasidagi yurt peshvolarining qilmishlaridan ranj-alam, iztirob chekadi. Ko‘rinadiki, Navoiy obrazida adolat va buyuk insonparvarlik g‘oyalari mujassam. U amalga oshirayotgan har bir ishidan el-yurt manfaati, mamlakat tinchligi va xalq osoyishtaligini ko‘zlaydi. Ulug‘ mutafakkir o‘z dono maslahatlari bilan shohga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatgan bo‘lsa, amaliy faoliyatida insonparvarlik g‘oyalarini amalga oshirgan. Oybek “Navoiy” romanida ulug‘ mutafakkir xarakterining shu jihatlarini mahorat bilan tasvirlay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, O. O. Q. (2022). OYBEK HAYOTI VA IJODINI O’RGANISHDA TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH (5-SINF ADABIYOT DARSLARI ASOSIDA). Science and innovation, 1(B3), 472-476.
2. Sadoqat, O. (2022). OYBEKNING “NAVOIY” ROMANIDA XARAKTER VA KONFLIKT MASALASI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(4), 101-107.
3. Sharipboyevna, F. G. (2022). ADABIY TA’LIM DASTURLARIDA MAZMUNNING IFODALANISHI VA UZVIYLIK SHAKLLARINI QO ‘LLASH. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 894-900.
4. Dehqonova, M., & Qosimov, I. (2022). OYBEK DOSTONLARIDA MAVZULAR XILMA-XILLIGI VA OBRAZLAR TASVIRI. International scientific journal of Biruni, 1(2), 317-322.